

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

JUMANIYAZOVA MAXIRA RAXIMBERGAN QIZI

**XOTIN-QIZLAR SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHDA JISMONIY
MADANIYATNING IJTIMOIIY MORFOFUNKSIONAL JIHATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Jumaniyazova Maxira Raximbergan qizi

Хотин-qizlar salomatligini mustahkamlashda jismoniy madaniyatning ijtimoiy
morfofunktsional jihatlar..... 3

Jumaniyazova Maxira Raximbergan qizi

Социально-морфофункциональные аспекты физической культуры в
укрепления женского здоровья..... 19

Jumaniyazova Makhira Rahimberganqizi

Social and morphofunctional aspects of physical culture in women's health
Promotion 35

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 39

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

JUMANIYAZOVA MAXIRA RAXIMBERGAN QIZI

**XOTIN-QIZLAR SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHDA JISMONIY
MADANIYATNING IJTIMOIIY MORFOFUNKSIONAL JIHATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fal742 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xajieva Maksuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yazdonov Ulug'bek Toshmurotovich
falsafa fanlari doktori, professor

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "7" aprel soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 32 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "23" mart kuni tarqatildi.
(2023-yil "23" mart dagi 32 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.Sh.Negmatova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo'layotgan voqealar bir tomondan, insoniyatni yanada jipslashib, kengroq integratsiyaga kirishib yashashga undayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy o'zlikni, suverenitetni va etnomadaniyatlardagi betakrorlikni saqlab qolish masalalarini kun tartibiga qo'yimoqda. "Asr vabosi" deb nomlanayotgan COVID-19 esa insoniyat hayotini xavf ostida ekanligini, pirovardida inson yaratgan barcha narsalar, qadriyatlar sog'lom va faol avlodni shakllantirishdek oliyjanob maqsadga xizmat qiluvchi usullar, vositalar hamda innovatsion yondashishlar befoyda ketishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga bugungi kunda xotin-qizlar salomatligini asrash va mustahkamlash global voqelikka aylangan bo'lib, uning yechimini topish yo'llarini va mexanizmlarini aniqlash obyektiv zaruriyatga aylanib bormoqda.

Jahon ilm-fanida inson salomatligini saqlash va uni mustahkamlashga oid turli yo'nalishlarda amaliy-fundamental, ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, insoniyatning ijtimoiy-siyosiy va psixo-fiziologik, gendir muammolari, xotin-qizlarning reprodaktiv salomatligini ta'minlash va ularni ijtimoiy hayotga jalb etish masalalari hamda yosh avlodni jismonan, aqlan, ruhan tetik subyekt sifatida shakllantirish bilan bog'liq tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, inson salomatligiga global muammo sifatida yondashish, bu borada jiddiy tibbiy, psixofiziologik, valeologik, tarbiyaviy, ma'rifiy izlanishlar olib borishni yo'lga qo'yish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu ma'noda bugun nafaqat jahondagi rivojlangan, ilg'or davlatlar, hatto mustaqilligini endi qo'lga kiritgan yosh davlatlar ham inson salomatligini mustahkamlashning zamonaviy mexanizm, usul va vositalarini ishlab chiqish borasida keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyatini saqlab qolmoqda.

Mamlakatimizda aholi, ayniqsa, bolalar va xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Ushbu tizimda ona va bola sog'ligini saqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror topdirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish muhim o'rin tutadi"¹. Mazkur vazifani samarali hal etishda uning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-tashkiliy, tarbiyaviy-ma'rifiy asoslarini zamon talabiga mos ravishda ko'rib chiqish va bunda bevosita jismoniy madaniyatni xotin-qizlarning jismoniy hamda reprodaktiv salomatligini mustahkamlashdagi ijtimoiy morfofunktsional jihatlarini tadqiq qilish ilmiy jamoatchilik oldidagi muhim masalalar sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida", 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси [Матн] // Ш.М. Мирзиёев - Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021. -Б. 217.

ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi O'RQ-394-son "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" va 2019 yil 11 martdagi O'RQ-528-son "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi qonunlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Inson salomatligi bilan bog'liq izlanishlar oldindan tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, G'arb mamlakatlarida muammoning ayrim jihatlarini G.Ploss, J.Kanolli, V.Grizenger, Z.Freyd, O.Veyninger, A.Shopengauer, F.Nisse, T.Meynert, Ch.Lombrozo, A. Piz va B.Piz, J.Lyuis, S.Bronsmiller, L.K. Aksiteli, T.S.Antonissi, D.M.Buss, P.J.Koplan, Ye. Kox, R.Xilton, K.T Kilmartin, D.J Levinson kabilar muammoning ijtimoiy-siyosiy va psixo-fiziologik, gendir muammolarini o'rganishgan¹.

MDH olimlaridan G. I. Akinshikova, Yu.Ye Aleshina, B.G.Ananayev, T.V.Andreeva, E. Barsh, T.A. Barsheieva, M.Ye. Baskakakova, T.V.Bedas, G.A.Bilich, V.A. Bajedomov, V.A. Gesdakyana, Yu.A. Gurkin, F.A. Isrdanskaya, I.S. Kon, Ye.P. Ilin, L.I. Lubisheva, N.M. Ledavekaya, Ye. Mещerкина, V.A. Pankov, Ye.Sereva, V.V. Sologub, S.Soxa, N.A. Usacheva, G.L. Ходыровalar xotin-qizlarning reprodaktiv salomatligini ta'minlash va ularni ijtimoiy hayotga jalab etish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan².

O'zbekistonda xotin-qizlar salomatligini ta'minlashning ayrim ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-huquqiy, oilaviy munosabatalar bilan bog'liq jihatlarini Ya. Abdullaeva, F. Abdurahmonova, S.Ahrorova, R. Arziqulov, X. Bobomuratova, G.G. Inag'omova, R.S.Samarov, G.Matkarimova, R.Muhammedov, M.Xolmatova,

¹ Пloss Г. Женщина: Монография. - Сыктывкар-Киров, «Вятка». 1995. С. 640; Pinel Ph. Traité médico-philosophique sur l'aliénation mentale, ou la Manie. Paris: Richard, Caille et Ravier, an IX/1800 («Медико-философский трактат о мании»); Вейнингер О. Пол и характер. // Латард. 1997. С. 358; Фрейд З. Психоанализ. // Научная литература. Москва: 2010. С. 523; Ломброзо Ч. Гениальность и помешательство; Женщина преступница и проститутка; Любовь у помешанных. Сборник. - Минск: ООО «Попурри», 1998. С. 40-41.; Карл Юнг: Психологические типы. — Академический проект, 2019. С. 538; Льюис. Неудовольствие женщины.-Москва; Acciteli L.K., Antonucci T.C. Gender differences in the link between marital support and satisfaction in older couples// Journal of Personality and Social Psychology. 1994. V67.p688-698; Buss D. M. The evolution of desire: Strategies of human mating.-N. Y.: Basic Books; 1994; Caplon P.J, Thinking critically about research on sex and gender.- Boston, 2009;

² Акиншикова Г.И. Телосложение и реактивность организма.- Ленинград: Наука, 1999; Алешина Ю.Е., Волович А.С. Проблемы усвоения ролей мужчин и женщины// вопросы психологии. 1991. №4.С.74-82; Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания.- СПб.: «Питер», 2001; Барш Э.Семь возрастов женщины. Возрастные особенности физиологии и психологии женщины. - Москва: наука, 1994; Барышева Т.А. Креативность. Диагностика и развитие - СПб.: «Питер», 2002; Баскакова М.Е. Равные возможности и гендерные стереотипы на рынке труда.- Москва. Наука: 1998; Ильин Е.П. Полигендизм.- СПб.: «Питер», 2010; Лубышева Л.И. Женщина и спорт: социальный аспект// Теория и практика физической культуры, 2000.№6.С.13-16; Панков В.А. Физическая культура и спорт в здоровом образе жизни женщин// Теория и практика физической культуры, 2000 №6. С.20-22; Усачева Н.А. Женщина: ее статус, судьба и образ в мировой культуре.-Алматы, 1994; Ходырева Г.Л. Гендер и здоровье // Психология здоровья.- СПб.: «Питер», 2003.

A.Huseinova, N.Nishonova, O.Nishonova, F.Saifnazarova¹ kabilar o'rganishgan. Shunday bo'lsa-da, xotin-qizlar salomatligini mustahkamlashning keyingi besh yil ichida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan innovatsion o'zgarishlar nuqtai nazaridan tadqiq etish zarurati mavjuddir.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilayotgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Urganch davlat universitetini 2017-2030 yillarda rivojlantirish dasturi"ning 2.4-bandiga asosan va "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning jismoniy va reproduktiv salomatligini mustahkamlash borasidagi dinamik jarayonlarni aniqlash hamda ularga ta'sir etish omillarining konstruktiv jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

salomatlik fenomenining ijtimoiy-falsafiy va tibbiy-fiziologik asoslarini ochib berish;

xotin-qizlar salomatligining morfunktsional xususiyatlarini yoritish va aniqlash;

jismoniy madaniyatning inson, ayniqsa, xotin-qizlar organizmiga morfofunktsional va ijtimoiy faolligiga fiziologik ta'sirini ko'rsatish;

yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning xotin-qizlarning jismoniy va reproduktiv salomatligini mustahkamlashga qaratilganini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston xotin-qizlari salomatligini mustahkamlashda jismoniy madaniyatning ijtimoiy morfofunktsional jihatlarini tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti xotin-qizlar salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiyaning konstruktiv ahamiyatini falsafiy aspektda asoslashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, induksiya va deduksiya, obyektivlik, tarixiylik, dialektik, qiyosiy tahlil, sinergetik, tizimli va qiyosiy tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

salomatlik fenomenining inson hayotiga, sotsial funksiyalarini bajarishga, o'zligini anglash va kreativ shaxsligini namoyon etishdagi ob'ektiv imkoniyatlari (oilada sog'lom turmush tarzi, obod ijtimoiy muhit) o'zaro simbioz rivojlanishidan iborat ekanligi asoslangan;

¹ Абдуллаева Я. Қорақалпоғистон хотин-қизлари: кеча ва бугун. XIX асрнинг охири ва XX аср.-Т.: Ijod dunyosi, 2004; Ахророва С.А. Глобаллашув жараёнида хотин-қизлар масалаларига муносабат. Монография.-Т.: Navroz, 2013; Инағомова Г.Г. Халқаро ва миллий қонунчиликда аёл ҳуқуқлари.-Т.: И.И.Академия, 2010; Самаров Р.С. Жамият ва қулолли қучлар фелигнизациялашуви.-Т.: "Фан", 2008; Сабинова Д. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласи тарихидан (XX асрнинг 40-80йиллари)-Т.: "Akadem nashr", 2011; Холматова М. Оилавий муносабатлар маданияти(ижтимоий-фалсафий таҳлил)-Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ инст. 2002; Хусеинова А. Аёл ва жамият.-Бухора, 2012; Нишоновна Н. Давлат бошқариш тизимида хотин қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш масалалари.-Т.: "Extremum-press", 2013; Нишоновна О. Ўзбек аёли этномаданияти.-Т.: "Фан ва технологиялар". 2001; Саифназарова Ф. "Ўзбек оиласи": ижтимоий ва маънавий қадриятлар.-Т.: Yurist mediya markazi нашр, 2007.

xotin-qizlar reproduktiv salomatligining jismoniy madaniyat, sport kundalik sog'lomlashtirish mashqlari, tibbiy-fiziologik va morfofunktsional xususiyatlari aniqlanib, salomatlik fenomenining tibbiy va etnotibbiy hamda filogenetik (sog'lom turmush tarzi, tetiklik, chaqqonlik va ijtimoiy faollik) jihatlari falsafaning deterministik qonuniyati orqali ochib berilgan;

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar salomatligini mustahkamlashga, ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan islohotlarning insonparvar xarakterda ekanligi, "jismoniy-madaniy sog'lom ayol" tamoyili va sog'lom turmush tarzi qadriyatlarga sodiqlik kayfiyati bilan tavsiflanishi falsafiy jihatdan asoslangan;

xotin-qizlar salomatligining ijtimoiy, shaxsiy, madaniy va jismoniy faollik singari morfofunktsional jihatlarning muvofiqlashuvi kommunikativ vazifalarni bajaruvchi faoliyat ekanligiga ko'ra xotin-qizlar organizm holati, xatti-harakatlari va faoliyatiga barqaror ta'sir etishi mantiqiy isbolangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

salomatlik fenomeni bilan jismoniy madaniyat, xatti-harakat va faollikni dialektik bog'liqligi hamda kishilarni o'zining turmush tarzini ana shu uyg'unlik orqali idrok etish va baholashga doir vazifalar yoritib berilgan;

jismoniy madaniyat xotin-qizlar organizmiga morfofunktsional ta'sir etishi, uning tekis, xushbichim, sog'lom o'sishiga yordam berishi, ayollar reproduktiv salomatligini ta'minlash omili sifatida kelishi va ular o'rtasida jismoniy tarbiyani tashkil etishga doir tamoyillari aniqlangan;

dissertatsiya ilmiy natijalari asosida sohaga oid davlat organlari, jamoat tashkilotlarining mavzu doirasidagi amaliy chora-tadbir dasturlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xalqaro miqyosdagi va respublika ilmiy konferensiyalar materiallari to'plamlari, xorijiy ilmiy jurnallar hamda OAK ro'yxatida keltirilgan maxsus jurnallarda chop qilingan maqolalarda keltirilgan taklif va tavsiyalar, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi va olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyadagi ijtimoiy-falsafiy g'oyalar, fikrlardan kelgusi ilmiy tadqiqotlarda, ilmiy konsepsiyalar va "yo'l xaritasi"ni yaratishga qaratilgan innovatsion ilmiy ishlanmalarda, ilmiy eksperimental va empirik tajribalarning umumlashmalarini xotin-qizlarning fiziologik va reproduktiv salomatligini ta'minlash muammolarini ilmiy jihatdan o'rganishga va mavzuga yaqin fanlarning ilmiy-nazariy ma'lumotlarini konseptual boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyada ilgari surilgan tadqiqot natijalaridan salomatlik institutlari, aholiga jismoniy madaniyatga oid xizmatlar ko'rsatuvchi sport uyushmalari, xotin-qizlar muammolari bilan shug'ullanuvchi mahalla, reproduktiv tibbiy markazlar, klinikalar va diagnostika muassasalari kundalik amaliy faoliyatlarida, xotin-qizlar o'rtasida olib boriladigan tibbiy, shaxsiy gigiena va fiziologik sog'lomlashtirish

markazlarining ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirlarida va mavzuga oid metodologik o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangilanayotgan O'zbekistonda xotin-qizlarning jismoniy va reproduktiv salomatligini mustahkamlashda jismoniy madaniyatning o'rni va ahamiyatiga oid amaliy tavsiyalar va takliflar asosida:

salomatlik fenomenining inson hayotiga, sotsial funksiyalarini bajarishga, o'zligini anglash va kreativ shaxsligini namoyon etishgagi ob'ektiv imkoniyatlari (oilada sog'lom turmush tarzi, obod ijtimoiy muhit) o'zaro simbioz rivojlanishidan iborat ekanligiga oid taklif-tavsiyalardan O'zbekiston Respubdikasi "Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash" vazirligining "Qizlarning iqtidor va qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash haftaligi"ni yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda va "Xonadon gigienasini besh yulduzli mezon asosida baholash" mavzusidagi elektron platformasini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respubdikasi Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvvatlash vazirligining 2022 yil 10 iyundagi 04-02/143-son ma'lumotnomasi). Natijada, vazirlikning samaradorligini oshirishga hamda aholining sog'lom turmush tarzini yuksaltirishga xizmat qilgan;

xotin-qizlar reproduktiv salomatligining jismoniy madaniyat, sport kundalik sog'lomlashtirish mashqlari, tibbiy-fiziologik va morfofunktsional xususiyatlari aniqlanib, salomatlik fenomenining tibbiy va etnotibbiy hamda filogenetik (sog'lom turmush tarzi, tetiklik, chaqqonlik va ijtimoiy faollik) jihatlari falsafaning deterministik qonuniyati orqali ochib berilganligiga doir taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasining "Sog'lom inson – sog'lom millat" mavzusidagi loyihasi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining 2022 yil 11 avgustdagi 5-309-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining faoliyat samaradorligini oshirishga hamda ayollarning sog'lom turmush tarzini yuksaltirishga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar salomatligini mustahkamlashga, ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan islohotlarning insonparvar xarakterda ekanligi, "jismoniy-madaniy sog'lom ayol" tamoyili va sog'lom turmush tarzi qadriyatlarga sodiqlik kayfiyati bilan tavsiflanishiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma'mun akademiyasining "Xorazm shaharlarining tarixi, madaniy meroslari, obidalar va san'at asarlarining tadqiqodlari asosida SMART texnologiyalarni yaratish" mavzusidagi I-FA-2019-25 raqamli hamda "Dorul hikmat val maorif" zamonaviy virtual muzeyini yaratish" mavzusidagi PZ-2020103078 raqamli amaliy loyihalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma'mun akademiyasining 2022 yil 26 iyuldagi 159/1-22-son ma'lumotnomasi). Natijada, Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning jismoniy va reproduktiv salomatligini ta'minlash tajribalari, jismoniy madaniyatda innovatsion (gender tenglik va feministik tahlil), jismoniy-madaniy sog'lom ayolning ijtimoiy morfofunktsional modeli kabi masalalardagi muhim ilmiy xulosalar nazariy hamda amaliy jihatdan muhim manba bo'lishi va mazkur loyihalarning ijtimoiy-falsafiy jihatlarni yoritishga xizmat qilgan;

xotin-qizlar salomatligining ijtimoiy, shaxsiy, madaniy va jismoniy faollik singari morfofunktsional jihatlarining muvofiqlashuvi kommunikativ vazifalarni bajaruvchi faoliyat ekanligiga ko'ra xotin-qizlar organizm holati, xatti-harakatlari va faoliyatiga barqaror ta'sir etishiga oid taklif-tavsiyalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanalida 2021-2022 yillarda efirga uzatilgan "Millat va ma'naviyat", "O'zbekiston yoshlari", "Ta'lim va taraqqiyot", "Dugonalar" dasturlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi O'zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2022 yil 14 iyundagi 04-36-916-son ma'lumotnomasi). Natijada, xotin-qizlarning sog'lom turmush tarzi va madaniyati rivojlanishi bilan bog'liq dasturlar va innovatsion g'oyalarlarni ishlab chiqish ishlarni yanada takomillashtirishga hamda yoshlarda sog'lom madaniy hayot tarzini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, to'qqiz paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, dissertatsiya bajarilayotgan muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti va usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Tadqiqotning birinchi bobi "**Salomatlik ijtimoiy-falsafiy va ilmiy muammo sifatida**" deb nomlanadi. Mazkur bobda salomatlikning inson hayoti, turmush tarzi, ijtimoiy aloqalari, reproduktiv faolligi kabi voqeliklar bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi. Insonning mavjudligi, tirikligi, avvalo, salomatlik fenomeni orqali namoyon bo'ladi, shuning uchun salomatlik hech nima bilan almashtirilmaydigan, "o'zi-o'zi uchun" mavjud, mutlaq voqelik sifatida talqin qilinadi. Salomatlik mavjudlik, tiriklik ifodasidir. Xotin-qizlar salomatligi umumiy tarzdagi xotin-qizlar muammosining tarkibiy qismidir. Shuning uchun u xotin-qizlar salomatligini tibbiy-biologik, psixofiziologik, filogenetik, sog'lom turmush tarzi, reproduktiv faolligi, ijtimoiy hayotda qatnashishi, oila qurishi, bolalar tarbiyasi, aksiologiya, gender tenglikka oid muammolar kompleksida qarashni toqazo etadi. Bobda, salomatlikning inson hayotidagi o'rnini uning "sof voqelik", o'zi-o'zi uchun mutlaq

qadriyat ekani bilan belgilanishi haqida ham soʻz boradi. Bunda, salomatlikni hech nima bilan almashtirib yoki uning oʻrnini hech nima bilan toʻldirib boʻlmasligi, shuning uchun unga “sof voqelik” yoki “oʻzi-oʻzi uchun mavjud” voqelik sifatida qaralishi, salomatlik va hayot (tiriklik, mavjudlik maʼnosida) betakror voqelik ekanligi haqida ham soʻz yuritiladi. Ularni yoʻqotish tiriklik, mavjudlikni yoʻqotish bilan barovar. Xotin-qizlar salomatligi esa ijtimoiy, etnologik xususiyatlarga ham ega. Reproduktiv salomat ayolgina xalq, millat uchun zarur farzandlarni tugʻadi va oyoqqa qoʻyadi. Xotin-qizlarning jismoniy va reproduktiv salomatligini taʼminlash mudom jamiyat oldidagi vazifalardan biri, eng muhimi boʻlib kelgan. Bu oʻrinda islom dini, falsafasi va tafakkuridagi yondashuvlarni oʻrganish muammoning mudom dolzarb boʻlib kelganini koʻrsatadi.

Dissertatsiyada, islom anʼanalariga muvofiq, xotin-qizlar alohida sharoitda, psixofiziologik imkoniyatlariga muvofiq keladigan vazifalar, mashqlarni bajarishga yoʻnaltirilganligi haqida soʻz boradi. Bunda, islom teologiyasi va dogmasi xotin-qizlarga erkaklarga xos ishlar, amallar va vazifalarni bajarishga ijozat bermaganligi, bu bilan ular ayollarning salomatligini asrashni nazarda tutishi hamda islom xotin-qizlarga maʼlum bir jismoniy mashqlar (yugurish, otda chopish, suzish va boshqalar)ni bajarishni, sport tomoshalarini koʻrishni taqiqlamaganligi tatqiq etiladi. Ishda, Islom tarixiga oid tadqiqotlar ham tahlil etiladi unda Muhammad paygʻambarning kelishgan, baquvvat, xushsurat inson boʻlgani keltiriladi. Shvesariyalik faylasuf T.Karleyl uni nihoyatda pokdomon, goʻzal tabiatli, yuqori axloqli, mard inson ekanini aytadi¹. Muhammad paygʻambarning turmush tarzi, munosabatlari, ayollariga mehri ibratli, namuna timsoli. U inson ummatlari taqlid qilishini bilgan, shuning uchun, avvalo, oʻz ahloqini, amallari va munosabatlarini sogʻlom talablarga qurgan. Uning oʻzi degan: “Ikkita ulugʻ neʼmat bor bu tinchlik va salomatlikdir” “Allohdan avfni, ofiyatni va salomatlikni soʻrab duo qiling. Hech kimga iymondan soʻng salomatlikdan afzal neʼmat berilmagan”². Islom tafakkurida xotin-qizlarning salomatligi masalalari ham atroflicha yoritilib oʻtilgan. Islom xotin-qizlarni sport tomoshalariga borishini, sportning maʼlum bir turlari bilan shugʻullanishinigina qoʻllab-quvvatlaydi³, degan fikrlar ham tadqiqotda ochib beriladi. Ammo u xotin-qizlarning yarim yalongʻoch tarzda, erkaklar auditoriyasida mashqlar bajarishini qoʻllab-quvvatlamagan. Bugun xalqaro talablarga muvofiq demokratik-huquqiy davlatlarda xotin-qizlar bilan erkaklar bir musobaqada, sport oʻyinlarida qatnashishi mumkin. Hatto ayrim ayollar erkaklarga xos sport turlari bilan shugʻullanib gʻoliblik pogʻonalarini egallab kelishadi.

Ishda, xotin-qizlar salomatligini taʼminlashning ilmiy-tibbiy va ilmiy-valeologik asoslari ham mavjudligi, salomatlik fenomeni, avvalo, ilmiy-tibbiy nuqtai-nazardan oʻrganilishi, baholanishi zarurligi, chunki inson salomatligini oʻrganish va taʼminlash qadimdan tibbiyotning vazifasi boʻlib kelgan, aynan tibbiyot bu borada boshqa fanlardan koʻra koʻp tajriba toʻplaganligi borasida ham

¹ Карлейль Т. Герои, героическое и героические личности в истории. - Москва: Эксмо, 2001. С. 124-143

² Шайх Назруллоҳ эшон (Ғарибий) ўғли Ўроқхон (Рафиъиддинхон). Саломатлик сирлари. - Тошкент: “Qamar media” нашриёти, 2020, 58 б.

³ Хаттаб Х. Справочник мусульманской женщины. - Алмати: Классик М, 2005. С. 35-38

fikr yuritilgan bo'lib bunda, zamonaviy tibbiyot salomatlik fenomenini nafaqat o'rganishi, tekshiriladi, shu bilan birga, u salomatlikni qayta tiklash, mustahkamlash va diagnostika qilish, zarur amaliy tavsiyalar berishi bilan qimmatli ekanligi tahlil etiladi.

Xotin-qizlar valeologiyasining ilm-fan, nazariya sifatida shakllanishini taqozo etadigan ijtimoiy-amaliy va ilmiy-nazariy omillarga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

1) xotin-qizlar valeologiyaning tadqiqot obyekti bo'lishi mumkinligini asoslab o'tirishga hojat yo'q;

2) xotin-qizlar aholi (salomatligining va turmush tarzining differensial xususiyatlari)ning yarmidan ko'p qatlami, bu faktning o'zi ularni har qanday ilmiy izlanishlar obyekti bo'lishi mumkinligini tasdiqlaydi;

3) xotin-qizlar o'zining psixologik, etnomadaniy, aksiologik va fikrlash tarziga oid o'z xususiyatlariga ega, bu xususiyatlarni o'rganish valeologik izlanishlar doirasini kengaytiradi va uning pastulatlarini asosli qiladi;

4) valeologiyani etnologiya bilan bog'laydi, aholishunoslik (xalqshunoslik) esa xalq, millat ravnaqini salomatlik va sog'lom turmush tarzi orqali tadqiq etish imkoniga ega bo'ladi. Etnologiyaning xotin-qizlar salomatligi va sog'lom turmush tarziga oid valeologik qarashlarga tayanishi tabiiy holdir.

Jismoniy madaniyat xotin-qizlar organizmiga morfofunktsional ta'sir etishi orqali valeologik tadqiqotlarga yo'nalish, mavzu beradi. Masalan, yugurish yoki gimnastika bilan shug'ullanish xotin-qizlar organizmining qaysi qismlariga ko'proq, qaysi qismlariga kamroq ta'sir qilishini va qaysi qismlariga umuman ta'sir qilmasligini (yoki aks ta'sir etishini) aniqlashga qaratiladi. Jismoniy mashqlar inson organizmiga va uning barcha qismlariga bab-barovar ta'sir etavermaydi, ushbu differensial jihatlarni bilish xotin-qizlarning jismoniy va reproduktiv salomatligini ta'minlashning samarali, ratsional yo'llarini topishga yordam beradi. Jismoniy madaniyatning o'zi inson organizmiga va psixofiziologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishini rad qilish mumkin emas, biroq ushbu umumiy pastulat, aksioma aniqlashtirishni ham toqazo etadi. Ya'ni uyushtiriladigan jismoniy mashqlar va yuk (nagruzka) xotin-qizlar organizmi qaysi qismlarining rivojlanishiga muvofiq keladiyu, qaysi qismlarning rivojlanishiga muvofiq kelmaydi yoki ular afiziologik defektlarni keltirib chiqaradi? Jismoniy madaniyatning ijtimoiy morfofunktsional jihatlari esa ushbu o'zgarishlarning xotin-qizlarning faol yashashida, o'zining biologik va ijtimoiy funksiyalarini bajarishida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Xotin-qizlar salomatligini mustahkamlashning umumijtimoiy (global), etnoaksiologik va dietalogik jihatlari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda xotin-qizlar jismoniy va reproduktiv salomatligini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy, jumladan, umumijtimoiy(global), etnoaksiologik va dietalogik masalalari tadqiq etiladi. Bugun xotin-qizlar muammosi bilan BMT tortib, to milliy davlatlar, transmilliy uyushmalar, xalqaro filantropik tashkilotlar ham shug'ullanayotganidan kelib chiqsak, mavzu global ahamiyatga ega ekanini anglaymiz. Bobda ushbu global ahamiyatga ega bo'lgan

xalqaro harakatlar va normalar tadqiq etiladi, ularning xotin-qizlar salomatligini ta'minlashdagi o'rni ochib beriladi.

Bobda, Yevropa Ittifoqi davlatlari xotin-qizlarning jismoniy va reproduktiv salomatligini mustahkamlashga jiddiy qarashishlari, bu borada turli ixtiyoriy uyushmalar tuzishganligi, klublar va assotsiatsiyalar, salomatlik institutlari, jismoniy mashqlar bo'yicha turnirlar, musobaqalar tashkil etishi borasida fikr yuritiladi. Ya'ni, 1952 yili Jenevada bo'lib o'tgan Xalqaro mehnat tashkilotining bosh konferensiyasida onalikni muhofaza qilish haqida konvensiya qabul qilishgan. Bu konvensiyaning tashkilotchilari va faol targ'ibotchilari Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Norvegiya, Portugaliya, Finlandiya va Shvesiyadagi xotin-qizlarni qamrab olgan. Qolgan davlatlarda esa bunday qulayliklar faqat sug'urta qilingan xotin-qizlarga nisbatan qo'llaniladi. Germaniya, Fransiya, Shvesiya, Lyuksemburg va Niderlandlar qirolligida ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi o'rnatilgan, bu davrda ayolning ish haqi saqlanadi. Bolgariya oylik ish haqining 90 foizi 32 hafta saqlanib qoladi, Xorvatiya ta'til vaqti 58 haftadan iborat bo'lib, 6 haftasida maosh haqi to'la saqlanib turadi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida homiladorlik va tug'ruq ta'tili 14-20 hafta etib belgilangan, Germaniyada bu muddat 36 oyni tashkil etadi. Barcha davlatlarda homilador ayolni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish, uning va homilasining salomat rivojlanishi, ratsional ovqatlanishi va farzand ko'rishi uchun maxsus klinikalar faoliyat yuritadi. Harbiy xizmatdagi oilali otalar, yigitlar uchun turli imtiyozlar, ta'tillar joriy etilgan. Masalan, Vengriya, Ruminiya, Portugaliya ularga 5 kunlik, Finlandiyada 8 kunlik, Belgiya, Latviya, Sloveniya, Shvesiyada 19 kunlik, Fransiya 11 kunlik, Niderlandlar Qirolligi, Norvegiya, Buyuk Britaniya va Estoniyada 14 kunlik, Islandiyada 3 haftalik haq to'lanadigan ta'tillar beriladi. Belgiya, Germaniya, Gresiya va Italiya bolali oilalarga daromad solig'i to'lashda imtiyozlar beriladi, Ispaniya va Portugaliya bolali oilalar har bir farzandi uchun soliq to'lovlarini qisqartirilgan shaklda to'lash huquqiga ega¹.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) xotin-qizlarning jismoniy va reproduktiv salomatligini mustahkamlash borasida juda katta ishlarni amalga oshirib keladi. Masalan, uning Yevropa byurosi "Sog'liq ta'sirini iqtisodiy baholash yo'riqnomasi"ni ishlab chiqqan. Mazkur yo'riqnoma salomatlikning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatga, mehnat samaradorligi va innovatsion ixtirolarga ta'sirini aniqlash, o'lchash imkonini beradi. U xotin-qizlarning jismoniy madaniyati darajasining mehnat faoliyatiga, ish tartibiga rioya etgan tarzda ish samaradorligiga ta'sirini o'lchash borasida ilmiy sinovlar va tajribalar o'tkazadi. Masalan, Litvada shahar merlari, mamlakat kasalxonalar va klinikalar uyushmasi, "Mintaqalar - salomatlik uchun" tarmog'i, Litva sport universiteti aholi orasida yurak xastaliklari, semirish va sog'lom hayot tarzini targ'ib etish maqsadida velosipedni ommalashtirishga bosh-qosh bo'lmoqda. Bugun ushbu salomatlik yo'lagi 300 kilometrdan ziyoddir. Buyuk Britaniya ham velosipedni ommalashtirish harakati avj olgan. Veloharakatlar uchun sarflanadigan har bir funt Milliy sog'liqni saqlash tizimiga to'rt funt keltirar ekan. So'nggi o'n yilda

¹ Раҳматов Л. Оналик ва болалик: ўзгараётган дунё. - Тошкент: "TAMADDUN", 2017. 45 б.

velosipedda ishga qatnaydiganlar soni ikki barobarga oshgan. Bu mamlakat aholisining deyarli 40 foizi velosipeddan foylanmoqda deganidir. London shahri velosiped harakatini rivojlantirish uchun 2020 yilda 900 million funt sterling sarflagan¹. Xotin-qizlarning jismoniy va reproduktiv salomatligini mustahkamlash bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib ularga:

1. Reproktiv salomatlikning jismoniy-tarkibiy qismini, ya’ni fertil yoshdagi ayollarning jismoniy salomatlik holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni (ekstragental kasalliklar, abort, ovqatlanish, ekologiya, radiatsiya, ximikatlar);

2. Ma’naviy ruhiy salomatlik holatini (umumiy madaniylik, demografik, xulq, ma’lumotlilik, sog‘lom turmush tarzida yashashi, oiladagi ma’naviy-ruhiy vaziyat, erkakning munosabati va shu kabilar);

3. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ish bilan bandlik, oilaning iqtisodiy ta’minoti, uy-joy sharoitlarining mavjudligi, ijtimoiy ta’minot tizimining darajasi va shu kabilar. Onalar va bolalarga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlarning ahvoli, uning yuqori malakaligi va hammabopligi;

4. Reproktiv salomatlikni muhofaza qilish borasida davlat tomonidan yuritilayotgan siyosat va uning samaradorligi hamda huquqiy asoslarining yaratilganligini kiritish mumkin.

